

---

## LINGVOPOETIKA. POETIK SO'Z SEMANTIKASI, TIPOLOGIK-FUNKSIONAL JIHATLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7893306>

**Xasanova Saida Mamasoli qizi**

*Farg'ona davlat universiteti, lingvistik (ingliz tili) 2-bosqich magistranti*

[saida051090@gmail.com](mailto:saida051090@gmail.com)

**Rahimov Zokirjon Azimovich**

*Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

@zakirazimovich

### **Annotatsiya.**

*Ushbu tadqiqot O'zbek adabiyotshunosligida lingvopoetika tushunchasi va uning ahamiyati xususida bo'lib, poetik so'zlar, ularning ishlatilish o'rni, vazifalari haqidagi fikrlarni ilgari suradi. Shu bilan bir qatorda, turli adabiy davrlarning Poetik so'zlarga ta'siri va she'riyatdagi aksini ko'rsatib beradi. Tilda foydalaniluvchi so'zlar semantikasining poetikada foydalaniladigan so'zlar bilan o'xshashliklari va tafovutlarini ochib berishga qaratilgan.*

### **Kalit so'zlar.**

*lingvopoetika, poetik so'z semantikasi, poetik so'z funksiyasi, poetik so'z tipologiyasi.*

### **Аннотация**

*Это исследование посвящено понятию лингвопоэтики и ее значению в узбекском литературоведении, также, выдвигает идеи о поэтических словах, их месте использования и функциях. Кроме того, показано влияние разных литературных периодов на поэтические слова и их отражение в поэзии. Направлена на выявление сходства и различия семантики слов, используемых в поэзии, и слов, используемых в поэтике.*

### **Ключевые слова.**

*лингвопоэтика, семантика поэтического слова, функция поэтического слова, типология поэтического слова.*

### **Abstract.**

*The article discuss the essence of the concept linguopoetics, the semantics of poetic words and their main roles in Literature.*

*It proposes that the distinguishes of linguopoetics from other genres of literature. They do not belong to everyday speech.*

*In the second of the part of the article introduces some specific features using poetic words complexities in poems.*

**Key words.**

*linguopoetics, the semantics of poetic word, poetic word functions.*

**Kirish**

Maqolada lingvopoetika va uning boshqa adabiy janrlar tilidan farqi va mohiyati xususida soʻz boradi. Hamda poetik soʻzlarning ahamiyati, sheʼrlardagi ustun jihati va ushbu soʻzlarning poeziyadagi vazifalari masalalari ochib beriladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.**

Mazkur maqolada oʻzbek va jahon tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari, poetik soʻzlar semantikasi va ularning rivojlanishiga oid masalalar mohiyati haqida olimlar va tilshunoslarning fikrlari, muzokaralari olgʻa suriladi. Adabiyot sifatida B. Umurqulovning “ Poetik nutq leksikasi” kitobi va lingvopoetikaga bogʻliq boʻlgan ilmiy adabiyotlar, monografiya, va dissertatsiyalar tahlilga tortilgan.

**Natijalar va muhokamalar.**

Badiiy adabiyotda asar, poeziyada soʻz qanchalik mukammal, jozibador va mazmunli boʻlishi ushbu asarda soʻzning qanchalik oʻrinli ishlata bilish qobiliyatidadir. Shu sababdan hozirgi kunda lingvopoetikani oʻrganish anchagina dolzarb boʻlib bormoqda. Shu jumladan, jahon adabiyotida F. D Sassur, V.V. Vinogradov, O.S. Axamanova, N.N. Jirmunskiy asarlari oʻrganilib va ularning muhim ilmiy xulosalaridan keng qamrovda foydalanib kelinmoqda. Uzbek tilshunosligida esa M. Yoʻldoshevning “ Badiiy matn lingvistikasi”, B. Umurqulovning “ Poetik nutq leksikasi” kabi ilmiy asarlari ushbu yoʻlda muhim qoʻllanma boʻlib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy tilshunoslikda rus olimlaridan biri A. Lipgart lingvopoetikaning nazariy masalalari tadqiqi bilan shugʻullanib, alohida fan sifatida oʻrganilishi yuzasidan qarashlar bayon qilgan. Tilshunoslikdagi lingvopoetikaga oid muayyan masalalar ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish joizligi butun dunyo tilshunoslik olamida muqarrar vazifa boʻlib turibdi.

Badiiy adabiyotimiz juda ulkan resursga ega boʻlishiga qaramasdan, har bir davrning oʻziga xos, oʻz davri nuqtayi nazariga ega usul va uslublari, shu jihatdan, asar yaralishida badiiy, poetik til mavjuddir. Va bu yana bir tomondan lingvopoetik adabiyotshunoslarga boʻlgan ehtiyojni orttiradi, ish jarayonlarini qizgʻinlashtiradi.

Bilamizki, ma'lum bir til doirasida gaplashsak ham badiiy lingvistikada so'zlardan foydalanish o'sha asarning mazmundorligi, ta'sir kuchi va albatta, estetik zavq berishi bilan xarakterlanadi va shu bilan bir qatorda faqat adabiyotgagina xos yoki faqat o'sha davrga tegishli bo'lgan so'zlari bilan farqlidir. Xuddi shunday davrlarni B. Umurqulov "Poetik nutq leksikasi" kitobida besh qismga bo'lib, ularning dastlabkisini A. Navoiy davriga xoslab: bitmoq, ermak, ochun, o'shal, kabi so'zlar bo'lsa, keyingi davr esa fors-tojik tillari ta'siridagi anduh, afg'on, ashk, bo'ston, giryon, mahvash kabi so'zlarni ko'p uchratishimiz mumkin.

Keyingi bosqich arab istilosi davrida butun olim-u shoirlar o'sha tilda ijod qilgani boisidan ag'yor, bahr, ishq, kabir, mahzun, nasim, falak, yor kabi ko'plab o'zlashgan so'zlarni ko'rishimiz mumkin.

Bilamizki, arablar hukmronligi davri Rus revolyutsiyasi bilan yakun topadi va ushbu davr adabiyotimizga bir qancha yangi va internatsional so'zlar bilan ta'sir qila oldi.

Keyingi davr she'riyatida yanada yangicha baxtnoma, mehnatobod, nurxona, yashnarobod, o'lkadosh, yashnarobod va boshqa ko'plab so'zlarni shoirlarimiz ijodida uchratib turamiz.

Yuqorida davrlarga monand lingvistikaning shakllanganlini anglagan bo'lsak, endi nazm va nasr o'rtasidagi tafovutlarni ko'rib chiqishimiz lozim. Ikkala o'rinda ham fikrlar uchqurligi bo'lishiga qaramasdan, poeziya uchun nozik, nafis, jimjimador, ohangdor so'zlar, badiiy asardagiga nisbatan bo'rtirilgan lingvistika tanlab olinishi joiz. Adabiyotimizning salovatli yozuvchilaridan biri A. Qahhorning quyidagi hikoyasi misolida she'riyat bilan o'rtasigi so'zlar tanlovi va jozibasi farqlarini solishtirib ko'ramiz. "Shamol goh bo'riday uvillar, goh o'lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag'illar, hech narsa, hech narsa ko'rinmas edi"- "Daxshat" hikoyasidan keltirilgan ushbu parchada barcha jarayon shaksiz juda o'rinli tanlangan va o'quvchi tasavvurida osongina o'sha holat, o'sha hodisa gavdalanadi. Endi esa poetik so'zning farqini osongina farqlay olishimiz uchun Hamid Olimjonning ushbu satrlari misolida ko'rib chiqamiz.

Novdalarni bezab g'unchalar,  
Tongda aytdi hayot otini  
Va shabboda qurg'ur ilk sahar  
Olib ketdi gulning totini.

Ushbu satrlar orqali she'rning jozibasi, mantig'i, teran fikrlar jamlanmasi bir zumda nafaqat san'at ahlini balki, borki o'quvchini o'ziga osongina rom qila oladi.

Yuqorida qo'llanilgan poetik mahorat, poetik semantika yuksak darajada o'rinli ishlata olingan.

Adabiyotning bosh unsuri so'z ekan, umuman til ekan, ana shu asarning san'at darajasiga ko'tara olishda uning tili, muallifning so'zlar tanlovi asosiy omil bo'la oladi. Adabiyotimizda iz qoldirgan barcha ijodkorlar asarlarini, ularning mahoratini o'rganishimiz bilan bir qatorda tilimiz rivojiga, izlanuvchilarning tadqiqotlari yuksalishiga hissa qo'shgan bo'lamiz.

Poetik til tahlilini kuzatishimiz jarayonida leksik qatlamlar, davrlar ahamiyati, va albatta, shoirlarning ham o'z usuli, o'z so'zlari ham borligi tilshunoslarning e'tiboridan chetda qolmagan. Ba'zan asarning o'ziyoq ijod mahsulining muallifi, davri haqida aytib beradi.

Do'stlar, ahli zamondin mehr umidi tutmangiz,  
Mehri gardun bo'lsalar ko'z nuridin yoritmangiz.

Gar shah o'lsin, gar gadokim, solmangiz yuziga ko'z,  
Yodini balkim ko'ngulga har taraf yovutmangiz.

Yoki yana bir misol tariqasida,

Ey yuzung gulbargiga oshuftayu hayron sabo,  
Telbalardek gulshani ko'yungda sargardon sabo.

Qo'pmog'i mumkin emasdur, balki tebranmakligi,  
Topmasa jonbaxsh la'ling nuktasidan jon sabo.

Ushbu g'azallardagi so'zlar tarixi va uslub o'z-o'zidan XV asr adabiyoti va buyuk shoir A. Navoiy qalami ekanligini ma'lum qiladi.

Yana bir buyuk mumtoz shoir asarlariga nazar tashlasak:

Bir qo'lda Qur'onu bittasida jom,  
Ba'zida xalolmiz, ba'zida xarom,  
Feruza gumbazli osmon ostida  
Na chin musulmonmiz, na kofir tamom.

Yana bir ruboiy talqinida  
Ul mayki, sharobi jovidoniydi, ich,  
Sarmoyayi ishq, ayshi jahoniydir, ich.  
Yondirguvchi otash ul va darding oqizib

Ketguvchi ziloli zindagoniydir, ich...

Bu ruboiylardan yaqqol namoyonki, bu asarlar buyuk faylasuf, donishmand, shoir, ishq va sharob kuylarini satirikaga birlashtirgan Umar Xayyomdir.

Mana shunday o'ziga xoslik keyingi davr adabiyotida ham juda ko'p uchraydi. Masalan, shoir A. Cho'lponning har bir ijodiy ishida noziklik ufurib tursa, A. Avloniy she'rlarida esa go'zal tarif va tanqid, achchiq qochirimlar yaqqol sezilib turadi.

#### GO'ZAL

Erta tong shamoli sochlarin yozib,  
Yonimda o'tganda so'rab ko'ramen.  
Aytadir: " Bir ko'rib, yo'limdan ozib,  
Tog'u toshlar ichra istab yuramen!  
Bir ko'rdim men uni- shunchalar go'zal,  
Oydanda-da go'zaldir, kundanda-da go'zal!.."

#### VATAN

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,  
Har kim sening qadring bilmas-esi pastdur.  
Sening tuyg'ung yuraklarga savdo solur,  
Sening darding boshqa dardni tortib olur.  
Yering, suving bizni boqib to'ydiradur,  
Semiz-semiz qo'ylaringni so'ydiradur.

Yana bir xalqchil shoirimiz G'. G'ulom poeziyasi soddalik, tantilik, fikrlari bilan uyg'unlashgan bo'lib, uning har bir satridagi o'ynoqi ohang, mubolag'a ifodaliligi, metafora kuchi, poetik so'zlar o'z o'rnida jamlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Qatrada osmon aks etganidek,  
Jahonday ma'nodor qorachig'imiz.  
G'olib asrimizga quyoshdan mash'al,  
Zamon ko'rasining o'chmas cho'g'imiz.

#### Xulosa

Poetik so'z semantikasi va vazifalarini o'rganish dolzarbligini targ'ib qilish adabiyotimiz yuksalishiga qo'shgan asosiy xizmatimizdir. Biz bu bilan tilimizning naqadar boyligini ko'rsata bilibgina qolmasdan, uning davriyligini ham saqlab qolamiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR  
(REFERENCES):**

1. Lipgart A. Osnoviy lingvopoetiki 1999.
2. Turniyozova N. Matn lingvistikasi Samarqand 2004.
3. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi 1990.
4. Vinogradov V. O yazike xudojestvenniy literaturi 1977.
5. Yuldashev M. Badiiy matn lingvistikasi 2008.